

**KO'K RANGLI QORAKO'L TERILARINI ETISHTIRISHNING
IQTISODIY SAMARADORLIGI**

A.B.UTEMURATOV

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlar bilan mahalliy qora rangli qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlardan qorako'l terisi etishtirish samaradorligi aniqlangan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar. Afg'on genofondi, ko'k rangli qo'chqorlar, qora rangli qo'ylar, juftlash, avlodlar, samaradorlik.

Abstract. This article determines the effectiveness of producing karakul pelts from offspring obtained by mating blue rams of the Afghan gene pool with local black Karakul sheep, and presents the conclusions drawn.

Keywords. Afghan gene pool, blue rams, black sheep, mating, offspring, effectiveness.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda qorako'lchilik chorvachilikning cho'l va yarim cho'l hududlarida rivojlanayotgan muhim tarmog'i bo'lib, ushbu mintaqalardagi yaylovlardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda qorako'lchilikdan rangi xilma-xilligi bo'yicha o'ziga xos qorako'l terisini ishlab chiqarish imkoniyati, qo'y go'shti va jun xom ashyolariga bo'lgan talabni qondirishdir. Shu bois qorako'l qo'ylarining naslmiy xususiyatlarini yaxshilash, genetik salohiyatini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy muammodir [3; 22-24-b].

Qoraqalpog'iston respublikasida ko'k qorako'l rangli qo'ylarining bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirishga etarlicha e'tibor berilmaganini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, qo'ylarni saqlash va oziqlantirishga sharoit yaratilmaslik qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda olinadigan ushbu rangdagi qorako'l

terilari miqdori va sifatining pasayishiga, qo'ylar umumiy bosh sonining kamayishiga sabab bo'ldi. Ko'k rangli qorako'l qo'ylarining mahsuldorligining miqdor va sifatini oshirishda chetdan keltirilgan afg'on genotipiga mansub ko'k rangi naslli qo'chqorlarning biologik va mahsuldorlik salohiyatidan majmuaviy foydalanish orqali mahalliy qorako'l qo'ylarining genotipini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish dolzarb hisoblanadi [2], [4; 16-b].

Tadqiqotning maqsadi afg'on genotipiga mansub ko'k rangli naslli qo'chqorlar bilan mahalliy qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlarning qorako'l terisi etishtirish samaradorligi aniqlash bo'lib, hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari afg'on genotipiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l qo'ylari bilan juftlashdan olingan ko'k va qora rangli avlodlarning qorako'l terisi samaradorligini aniqlash va tavsiyalar berishdir.

Tadqiqotning obekti sifatida afg'on genotipiga mansub ko'k rangli qo'chqorlari, mahalliy qorako'l qo'ylari, qo'zilar, qorako'l terilari namunalari olindi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, afg'on genotipiga mansub ko'k rangli qo'chqorlari bilan mahalliy qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlarning teri sotishdan olingan rentabelligi ko'rsatkichlari hisoblandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda umume'tirof etilgan zootexniya, biologik, texnologik va statistik tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari. Ma'lumki, har qanday xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyati sof foyda olish maqsadida qorako'l teri mahsulotini ishlab chiqarishga qaratilgan. Qorako'lchilik xo'jaliklari shu nuqtai nazardan baholanadi.

Qorako'lchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish iqtisodiyotini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bu, rentabellik bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlikni ko'rsatuvchi asosiy mezon bu rentabellikdir. Xo'jalikdagi rentabellik darajasi bu qorako'lchilikdagi mahsulot ishlab chiqarishning indikatori hisoblanadi [1; 31-32-b].

Yuqorida ta'kidlanganidek, Qoraqalpog'iston respublikasida qorako'l qo'ylari, avvalambor, cho'l yaylovlaridan oqilona foydalanish maqsadida

urchitiladi, bu bilan mahalliy aholining bandligi ta'minlanadi va shu bilan bir vaqtning o'zida qorako'l teri mahsuloti olinadi. Shu sababli, keskin iqlim sharoiti hisoblangan Ustyurt hududida qo'ychilikdan ma'lum darajada iloji boricha ko'proq yuqori sifatli, talab yuqori mahsulotni kam xarajat bilan ishlab chiqarish juda muhimdir.

Ushbu fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, biz o'z tadqiqot iishlarimizda og'ir yaylov-iqlim sharoitlarida ko'k rangli qorako'l terilarini etishtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishga qaror qildik. Afg'on genotipiga mansub qo'chqorlardan Ustyurt sharoitida qorako'l terilarini ko'k va qora rangli qorako'l terilarini etishtirishning iqtisodiy rentabellik darajasi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

4.6.1-§. Qorako'l terisi etishtirish bo'yicha iqtisodiy samaradorligi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar		Po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar	
		ko'k	qora	ko'k	qora
Terilar soni	dona	25	25	25	25
Shundan 1-navli	%	64,0	68,0	60,0	64,0
1-dona terini sotish bahosi	so'm	117000	109000	113000	107000
Jami terining sotish bahosi	so'm	2925000	2725000	2825000	2675000
1-terini ishlab chiqarish uchun ketgan xarajat	so'm	89000	89000	89000	89000
Jami terini ishlab chiqarish uchun ketgan xarajat	so'm	2225000	2225000	2225000	2225000

Sof foyda	so'm	700000	500000	600000	450000
Rentabellik darajasi	%	31,5	22,5	27,0	20,2

1-jadval ma'lumotlari tahlili bo'yicha xulosa qilish mumkinki, ko'k rangli terilarga nisbatan 1-navli terilar ulushi qora terilarda ustunlik (+4,0 %) qildi. Havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarning terilarining sotilish bahosi yuqori bo'lib, qora terilarga nisbatan 8000 umga ko'proq va po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar ko'k rangli terilar sotilish bahosi 2825000 umni tashkil etgan bo'lsa, qora rangli terilarda 107000 so'm-ni tashkil qildi.

Keltirigan ma'lumotlardan ayon bo'ldiki, avg'on genotipiga mansub qo'chqorlardan olingan ko'k va qora rangli avlodlardan Ustyurt sharoitida mahsulot etishtirish iqtisodiy samarali ekanligi isbotlandi.

Qorako'l teri etishtirish bo'yicha havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan ko'k rangli avlodlarda 31,5 %, qora ranglilarda esa, 22,5 % va po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan ko'k avlodlarda 27,0 % va qora ranglilarda 20,2 %-ni tashkil qildi.

Xulosa. Afg'on genotipiga mansub qo'chqorlar bilan mahalliy qora rangli qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlarda Ustyurt pltaosi sharoitida iqsidiy samarali ekanligi isbotlanda va ko'k rangli qo'chqorlarni qora rangli qo'ylar bilan geteogen juftlash tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaziev A., Rizaeva D. «Seleksiyalashda olingan qora qorako'l teri mag'zining qalinligi, mustahkamligi va belgilarning korrelyatsion bog'liqligi» «Chorvachilik va naslchilik ishi» jurnali №3 2021-yil 31-32 b.
2. Джалолов, Х. Методы повышения потенциала продуктивности серых каракульских овец дангаринской популяции Таджикистана. Диссертация на соискание ученой степени кандидата наук. - Душанбе, 2009.
3. Turganbaev R.U., Utemuratov A.B. Afg'on genotipiga mansub qo'chqorlardan foydalanish samaradorligi J. Chorvachilik va naslchilik ishi. Toshkent. №3, 2024 y.22-24.
4. Turganbaev R.U. "Отбор ягнят по расцветке", Ж. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, Tashkent, 2004, №2, S.16